



**Maftuna NASIMOVA,**

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Akmal SANAKULOV,**

Samarqand davlat universiteti professori, q.x.f.d

**Zarifa ABDUSALOMOVA,**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti, b.f.f.d A.Nurniyozov taqrizi asosida

#### "RAVOT" AND "MAHSULDOR" BEAN VARIETIES OF TRANSPERSION RATE IN SAMARKAND REGION

##### Annotation

In Uzbekistan, high-yielding varieties of beans are planted on large fields. However, the water requirements of most of these varieties have not been fully studied. That's why studying their water exchange characteristics in specific climatic conditions and using the results is an urgent problem.

**Key words:** Transpiration, Transpiration rate, "Ravot", "Mahsuldor", development phases, Uzgumi, Edagum CM, Gumilyuks.

#### ТРАНСПИРАЦИЯ СОРТОВ ФАСОЛЬ «РАВОТ» И «МАХСУЛДОР» В УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

##### Аннотация

В Узбекистане на больших полях высаживают высокурожайные сорта фасоли. Однако потребность в воде большинства этих сортов до конца не изучена. Поэтому изучение особенностей их водообмена в конкретных климатических условиях и использование полученных результатов является актуальной задачей.

**Ключевые слова:** Транспирация, интенсивность транспирации, фазы развития, "Ravot", "Mahsuldor", Uzgumi, Edagum CM, Gumilyuks.

#### SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA "RAVOT" VA "MAHSULDOR" LOVIYA NAVLARINING TRANSPIRATSIYA JADALLIGI

##### Annotatsiya

O'zbekistonda loviyaning mo'l hosil beruvchi navlari keng maydonlarga ekip kelinmoqda. Ammo bu navlarning ko'pchiligining suvgaga bo'lgan talabi to'la o'rganilgan emas. Shuning uchun ham ularning suv almashinuv xususiyatlarini aniq iqlim sharoitida o'rganish va natijalardan foydalanish dolzarb muammo hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Transpiratsiya, Transpiratsiya jadalligi, "Ravot", "Mahsuldor", rivojlanish fazalari, Uzgumi, Edagym CM, Gumilyuks.

**Kirish.** So'nggi yillarda jahon dehqonchiligidagi loviya – *Phaseolus vulgaris* L. 27 mln hektar maydonga ekip kelinmoqda. Butun jahon mamlakatlarda loviya ishlab chiqarish 23,6 million tonnani tashkil qilmoqda. Hindiston, Braziliya, Xitoy, Myanma va AQSh keng maydonlarga loviya yetishtirish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Ushbu birinchi beshtalikdagi ishlab chiqaruvchi davlatlar jahon ishlab chiqarishining 60% dan ortig'ini, ya'ni 23,6 million tonnasidan 18,7 million tonnasini tashkil qiladi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljalangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sون Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida: mamlakatimizda ikkinchi ekin sifatida vegetatsiya davri qisqa dukkanligi don ekinlari ekish bo'yicha keng miqyosda ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ekin maydonlari tarkibining bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib o'zgartirilishi sabzavot, kartoshka mahsulotlari miqdorining ko'payishi bilan bir qatorda, don va dukkanligi o'simliklar mahsulotlarining turlari hamda assortimenti kengayishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu borada loviya yetishtirishda biofaol moddalardan foydalanishning fiziologik va biokimyoiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Transpiratsiya o'simlikning eng muhim hayotiy jarayonlaridan biridir. O'simlikning suv bug'latishi orqali o'simlik organlarini yaxlit tizim sifatida birlashtirib, ildiz tizimidan o'simlik barglariga tomon suvning uzuksiz harakatlanishi hisobiga mineral va qisman organik moddalarni tashishi ta'minlanadi [1, 2].

Bundan tashqari, transpiratsiya barg og'izchalarini orqali suvni bug'latish darajasini oshirish orqali o'simliklar tanasini haddan tashqari qizib ketishi va suvsizlanishdan saqlash manbai bo'lib, shu bilan o'simlikning hayotiy jarayonlarini normal borishi uchun zarur bo'lgan optimal haroratni saqlab turadi [3, 4].

Transpiratsiya jadalligi atrof-muhit omillariga bog'liq va barg og'izchalarining ochilish darajasiga qarab, kerak bo'lganda suv molekulalarining bug'lanish jadalligini va karbonat angidrid molekulalarining bargga (stomatal) kirib borishida muvozanatni ta'minlaydi va o'simliklarning qurg'oqchilikka va namlilikka chidamliligin qisman ta'minlash va ob-havo sharoitidan qat'iy nazar, qishloq xo'jaligi ekinlarining barqaror hosildorligini ta'minlashga yordam beradi [6, 7].

Mis (Cu) bir qator fermentlar askarbotoksidaza, polifenoloksidaza, ortofenoloksidaza va triozinazalar tarkibiga kiradi. Bu mikroelement azot almashinuvida ishtirok etadi. Mis vitaminlarni faollashtirib, uglevod va oqsillar almashinuvini kuchaytirib, o'simliklarning qurg'oqchilikka va issiqqa chidamliligin oshiradi.

Molibden (Mo) molekulyar azotning fiksatsiyasini ta'minlovchi mikroorganizmlar uchun juda zarur dukkancli o'simliklar ilidizidagi bakterioidlardagi nitrogenaza fermentining faol markaziga kiradi va bu fermentning faolligini kuchaytiradi, nitroreduktaza fermentining ham tarkibiga kiradi. Agar tuproqda molibdenning miqdori juda kam bo'lsa to'qimalarda nitratlar to'planib qoladi, dukkancli o'simliklarning ildizida tiganak bakteriyalar rivojlanmaydi, o'simlikning o'sishi izdan chiqadi, moyasi va barg plastinkalari deformatsiyalanadi, natijada o'z navbatida barg plastinkalarida barg og'izchalari soni kamayishiga olib keladi va bu o'z-o'zidan fotosintezez nafas olish jarayonlari sustlashadi [5].

Transpiratsiya jarayoni  $\text{CO}_2$  assimiliyatsiyasiga yordam beradi. Buning sababi shundaki, o'simliklar suv bug'latish jarayonida barg og'izchalari ochiq bo'ladi, ochiq stomalar  $\text{CO}_2$  ning barglarga kirishi uchun kanalga aylanadi. Shu sababli, stomatit o'tkazuvchanligi o'simliklarning transpiratsiyasi tezligi va samarali fotosintezi ta'minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, o'simliklarning transpiratsiya tezligini va stomatit o'tkazuvchanligini o'lhash ilmiy tadqiqotlar uchun ham, qishloq xo'jaligi xususan, bog'dorchilik va o'monchilik tadqiqotlari uchun ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi [8].

O'simliklarning o'sishi va rivojlanishining turli jarayonlarida ksantinoksida, fosfataza fermentlari urug'larning unib chiqishi, ildiz tizimining shakllanishi, barg plastinkalarining shakllanishi, gullash, urug'lanish jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kobalt (Co) barglarning hujayrali ko'payishida ishtirot etadi (mezofillning qalinligi va hajmini, ustunli va gubkali barg parenximasini hujayralarining hajmini va sonini ko'paytirish). Bundan tashqari, kobalt o'simliklardagi umumiy suv miqdorini oshiradi, bu esa ekinlarning qurg'oqchilikka chidamliligini oshirishga yordam beradi [10].

Oltungugurt (S) yetishmasligi bilan oqsil sintezi sekinlashadi, shuning uchun oltungugurt yetishmasligi belgilari azot ochligi belgilariiga o'xshaydi. O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi sekinlashadi, barglarning hajmi kamayadi va poyalarini uzayadi.

Kaliy (K) uglevod va oqsil almashinuvida ishtirot etadi, barglarda shakar hosil bo'lishini va ularning boshqa organlarga harakatlanishini kuchaytiradi. Bundan tashqari, kaliy o'simlik hujayralariga suv oqimini yaxshilaydi va bug'lanish jarayonini kamaytiradi, shu bilan o'simliklarning qurg'oqchilikka chidamliligini oshiradi [11].

Biofaol moddalar (Uzgumi, Эдагум СМ, Гумиэл Люкс) tarkibida esa yuqorida keltirib o'tilgan elementlar mayjud bo'lishi bilan birga ularning tarkibida gumin va fulvo kislotalar ham mavjudki, ularning ta'sirida ham ko'plab fermentlar faollashadi. Natijada o'simliklarda ko'plab ijobji o'zgarishlar sodir bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dala va lobaratoriya tajribalari umumqabul qilingan uslublarda amalga oshirilib, bunda dala tajribalari "Методика полевого опыта", "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" va shu kabi uslubiy qo'llannalar asosida o'tkazilgan bo'lsa, lobaratoriya tajribalarida o'simliklarning transpiratsiya jadalligi "Torzion tarozida aniqlash" uslubi asosida amalga oshirildi. Transpiratsiya jadalligini aniqlash navlarning rivojlanish fazalari bo'yicha va sutka davomida har 4 soat vaqt oralig'ida amalga oshirildi.

**Tahvil va natijalar.** Bizning tadqiqotlarimiz obyekti sifatida loviyaning "Ravot" va "Mahsuldor" navlari qo'llanildi. Bu nav Samarcand viloyatida keng maydonlarga ekilmoqda.

Loviya transpiratsiyasining kunlik jadalligi ertalabdan boshlab, har 4 soatda 5<sup>00</sup>, 9<sup>00</sup>, 13<sup>00</sup>, 17<sup>00</sup>, 21<sup>00</sup> larda aniqlandi. Shu soatlarda havo harorati ham o'lchandi.

O'simliklarning shoxlanish (shonalash) fazasida o'tkazilgan tahlillarda transpiratsiya jadalligi ertalabgi soatlarda (5<sup>00</sup>) past 158,54-169,94 g/m<sup>2</sup>\*soat, bo'lgan bo'lsa, soat 9<sup>00</sup> da o'tkazilgan tahlillarda transpiratsiyaning jadallahganligi (312,05-323,26 g/m<sup>2</sup>\*soat) 13<sup>00</sup> da barg og'izchalarining yopilishi natijasida transpiratsiya jadalligi kamayib, 175,13-186,45 g/m<sup>2</sup>\*soat bo'lganligi aniqlandi. Kunning ikkinchi yarmida soat 17<sup>00</sup> da transpiratsiyaning yana jadallahganligi (269,54-280,75 g/m<sup>2</sup>\*soat), tunda ya'ni soat 21<sup>00</sup> da yana pasayganligi (116,29-127,52 g/m<sup>2</sup>\*soat) aniqlandi.

Xuddi shunday tendensiya barcha rivojlanish fazalarida ham qayd etildi. Transpiratsiya jadalligi rivojlanish fazalarini bo'yicha tahlil qilinganida, shoxlanishdan gullashga tomon ortib borib, eng yuqori ko'rsatkich gullash fazasida qayd etildi. Dukkaklash fazasidan boshlab pishish fazasiga tomon transpiratsiya jadalligining pasayganligi aniqlandi.

Olingan natijalardan aniqlanishicha, transpiratsiya jadalligi "Mahsuldor" navida "Ravot" naviga nisbatan yuqori bo'lganligi aniqlandi.

#### 1-jadval

"Ravot" navining vegetatsiya davrlarida transpiratsiya jadalligi,  
g/m<sup>2</sup>\*soat

№	Tajriba variantlari	Aniqlash muddatları				
		5-00	9-00	13-00	17-00	21-00
Shoxlanish fazasi						
1	N35P60K30 (фон) – preparatsiz	158,54	312,05	175,13	269,54	116,29
2	Фон+Uzgumi	166,64	320,06	183,28	277,59	124,38
3	Фон+Эдагум СМ	167,76	321,18	184,39	278,62	125,49
4	Фон+Гумиэл Люкс	169,94	323,26	186,45	280,75	127,52
Gullash fazasi						
1	N35P60K30 (фон) – preparatsiz	192,52	349,76	209,64	303,37	149,23
2	Фон+Uzgumi	207,76	364,95	224,82	318,55	164,41
3	Фон+Эдагум СМ	208,93	366,04	225,93	319,62	165,57
4	Фон+Гумиэл Люкс	211,62	368,29	228,19	321,88	167,73
Dukkaklash fazasi						
1	N35P60K30 (фон) – preparatsiz	173,47	339,48	181,87	274,97	120,83
2	Фон+Uzgumi	175,57	341,58	183,93	277,03	122,96
3	Фон+Эдагум СМ	177,67	343,63	186,03	279,19	125,03
4	Фон+Гумиэл Люкс	179,77	345,71	188,13	281,25	127,19
Pishish fazasi						
1	N35P60K30 (фон) – preparatsiz	162,73	323,09	170,59	261,72	109,57
2	Фон+Uzgumi	163,83	324,18	171,68	262,81	110,62
3	Фон+Эдагум СМ	164,93	325,21	172,74	263,97	111,78
4	Фон+Гумиэл Люкс	166,01	326,35	173,51	265,02	112,83

#### 2-jadval

"Mahsuldor" navining vegetatsiya davrlarida transpiratsiya jadalligi,  
g/m<sup>2</sup>\*soat

№	Tajriba variantlari	Aniqlash muddatları				
		5-00	9-00	13-00	17-00	21-00

Shoxlanish fazasi					
1	N35P60K30 (фон) – preparatsiz	170,60	324,11	187,19	281,60
2	Фон+Uzgumi	178,70	332,21	195,29	289,74
3	Фон+Эдагум СМ	179,83	333,39	196,42	290,86
4	Фон+Гумиэл Люкс	181,99	335,41	198,87	292,28
Gullash fazasi					
1	N35P60K30 (фон) – preparatsiz	204,58	361,82	221,70	315,43
2	Фон+Uzgumi	220,95	377,01	236,88	330,61
3	Фон+Эдагум СМ	225,81	378,13	237,95	331,69
4	Фон+Гумиэл Люкс	228,54	380,38	240,21	333,94
Dukkaklash fazasi					
1	N35P60K30 (фон) – preparatsiz	185,53	351,54	193,93	287,03
2	Фон+Uzgumi	187,63	353,64	196,09	289,18
3	Фон+Эдагум СМ	189,77	355,74	198,15	291,26
4	Фон+Гумиэл Люкс	191,84	357,84	200,28	293,39
Pishish fazasi					
1	N35P60K30 (фон) – preparatsiz	174,79	334,79	182,29	273,42
2	Фон+Uzgumi	175,93	335,82	183,38	274,54
3	Фон+Эдагум СМ	177,07	336,94	184,47	275,63
4	Фон+Гумиэл Люкс	178,14	338,08	185,52	276,79

**Xulosa.** Ikkala navning vegetatsiya davrlarida barglardagi transpiratsiya jadalligi shoxlanish fazasidan gullah fasasigacha ortib borishi va eng yuqori ko'rsatkich gullah fazasida namoyon bo'lishi, shonalar va gullar hosil qilishi hisobiga o'simlikning moddalar almashinuvni jarayoni va fotosintez jarayoni jadalligining oshib borishi hisobiga biologik faol moddalarini aynan shoxlanish va gullah fazasi oralig'ida o'simlik barglariga purkalishi bilan izohlanadi, biologik faol moddalar tarkibidagi kaliy o'simlik hujayralariga suv oqimini yaxshilaydi va bug'lanish jarayonini kamaytiradi, shu bilan o'simliklarning qurg'oqchilikka chidamliligin oshiradi. K, Cu, Mo, Mn, Co o'simliklardagi umumiy suv miqdorini oshirib, o'simlik hujayralariga suv oqimini yaxshilaydi va bug'lanish jarayonini kamaytiradi, issiqqa chidamliligin ta'minlab, shu bilan o'simliklarning qurg'oqchilikka chidamliligin oshiradi.

#### ADABIYOTLAR

- Миоц О.А., Чекалин Е.И. Научно-производственный журнал «Зернобобовые и крупяные культуры» 2020. -№3 (35). –С. 85-90
- UN Food & Agriculture Organisation. *Дата обращения: 11 августа 2017. Архивировано 12 ноября 2016 года*
- Amelin A.V., Chekalin E.I., Zaikin V.V., Salnikova N.B. Интенсивность фотосинтеза и транспирации листьев на растениях Глицине макс (Л.) Терр. Терр. щ Вестник аграрной науки, 2017. -№6 (69). –С. 3-8.
- Amelin A.V., Chekalin E.I., Zaikin V.V., Salnikova N.B. Интенсивность транспирации листьев Glycine max (L.) Merr. Зависимости от фазы роста и ярусного расположения на растении Glycine max (L.) Merr. *Научно-практический журнал Овощи России.* 2018. -№ 1 (39), –С. 47-49
- Хужаев Ж.Х Ўсимликлар физиологияси ТОШКЕНТ - <<МЕННАТ>>-2004 121-128-б.
- Amelin A.V., Fesenko A.N., Zaikin V.V., Chekalin E.I. *Zernobobovye i krupyanye kultury*, -№. 4 (28), 2018, 24-59-б.
- Amelin A.V., Fesenko A.N., Zaikin V.V., Chekalin E.I. Esculentum Moench. *Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии*, 2018. –С. 41-48
- [https://labinstruments.ru/equipment-analyzatory-parametrov-rasteniy/rc\\_trm01#opisanie](https://labinstruments.ru/equipment-analyzatory-parametrov-rasteniy/rc_trm01#opisanie)
- Alimova R. A O'simliklar fizioiogiyasi va biokimyozi «Fan» nashriyoti, 2013.38-b
- Сидоренко Е.С., Харитонашвили Е.В. Биологические и сельскохозяйственные науки Всероссийский журнал научных публикаций, октябрь 2011. –С. 18-20
- <https://azurniva.ru/ru/articles/elementy-pitaniya-rasteniy.html>
- [www.-agronet.ru](http://www.-agronet.ru)
- [www.-ziyonet.uz](http://www.-ziyonet.uz)